



AXLOQ TUZATISH ISHLARI TARIQASIDAGI JAZONING IJROSINI TASHKIL ETISH

Ergashev Xudoberdi

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15771206>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

axloq tuzatish ishlari,
probatsiya, jinoyat-ijroiya
tizimi, jazoni ijro etish, ish haqi,
jazoni almashtirish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya tizimida axloq tuzatish ishlari jazosining ijrosini tashkil etish tartibi, ushbu jazo turi bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari atroflicha yoritilgan. Maqolada, shuningdek, ushbu jazo turi bilan shug'ullanuvchi probatsiya xizmati faoliyati, normativ-huquqiy asoslari va xalqaro tajribalar bilan solishtirma tahlil ham o'rin olgan. Axloq tuzatish ishlari orqali jinoyatchilarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirishdagi amaliyotlar ham ko'rib chiqiladi

Axloq tuzatish ishlari O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi tizimida yengil jazo turi sifatida belgilangan bo'lib, u mahkumni jamiyatdan ajratmagan holda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali tuzatishga qaratilgan. Ushbu jazo turi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlaridan biri bo'lib, jinoyatchilik darajasini kamaytirish, qayta jinoyat sodir etish ehtimolini pasaytirish va mahkumni ijtimoiy hayotga moslashtirishda muhim o'rin tutadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosining ijrosi qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyida yoki jazolarini ijro etish inspeksiyasi belgilagan joylarda o'taladi. Bu jazo korxonada, muassasa va tashkilotlarda amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatli voyaga yetgan shaxslar ishga joylashtiriladi yoki mavjud ish joylarida jazoni o'taydi. Mahkumlar probatsiya inspeksiyasi tomonidan nazorat qilinadi. Ish joyida mahkumlarning mehnat faoliyati monitoring qilinadi, ish haqidan belgilangan foizda (10-30%) ushlab qolishlar amalga oshiriladi.

Probatsiya xizmati axloq tuzatish ishlarini ijro etishning asosiy ijrochisi hisoblanadi. Ular mahkumni ro'yxatga olish, ish joyiga yuborish, mehnat faoliyatini nazorat qilish, ish haqidan ajratmalarni hisoblash va mehnat intizomiga rioya qilinishini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, probatsiya xodimlari o'z vakolatlari doirasida mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik, pensiya yoshi, sog'lig'i yomonlashuvi kabi holatlarda mahkumni jazodan ozod qilish bo'yicha sudga taqdimnoma kiritadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosiga hukm qilingan mahkumlar ustidan hisob yuritish aniq tartib asosida olib boriladi. Ularning har biri shaxsiy yig'ma jild bilan ta'minlanadi va hisobot jurnallarida ro'yxatga olinadi. Hisoblar: tezkor, dastlabki, nazorat va qidiruv hisoblariga bo'linadi. Bu hisoblar orqali mahkumning ish faoliyati, joylashuvi, sog'ligi va boshqa holatlari nazorat qilinadi.

Mahkumning ish haqidan ushlab qolish tartibi qat'iy tartibda amalga oshiriladi. Bu mablag'lar har oyda davlat daromadi hisobiga o'tkaziladi. Ish haqi hisobidan faqat belgilangan turdagi to'lovlar ushlab qolinadi, ayrim kompensatsiya to'lovlari yoki ijtimoiy to'lovlardan ushlab qolish mumkin emas. Bu jarayonni jazoni ijro etish inspeksiyasi maxsus dasturlar yordamida nazorat qiladi.

Axloq tuzatish ishlari jazosidan ozod qilish holatlari qonunchilikda belgilangan bo'lib, sud hukmi bilan belgilangan muddat tugaganidan so'ng, amnistiya yoki afv asosida, sog'lig'i yomonlashgan holatda yoki jazo yengilroq turi bilan almashtirilganda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, mahkumning vafoti yoki yashash joyini o'zgartirgani sababli hisobdan chiqarish hollari ham mavjud.

Bu jazo turini ijro etishda bir qancha kamchiliklar ham mavjud bo'lib, asosiylaridan biri sifatida mahkumlar uchun yetarli hamda yuqori daromadli ish o'rinlarining mavjud emasligini misol qilib keltirish mumkin. Ko'plab ish beruvchilar bu jazoga tayinlangan shaxslarni ishga qabul qilishni xohlashmaydi, buning oldini olish uchun ish beruvchilarga soliq imtiyozlari joriy qilish, tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash hamda kengaytirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar orqali ularni axloq tuzatish ishlari jazosiga tayinlangan shaxslarni ishga jalb qilishga undash mumkin.

Axloq tuzatish ishlariga o'xshash jazo turlari ko'plab xorijiy mamlakatlar jinoyat-ijroiya tizimida mavjud. Masalan, Germaniyada 'community service' shaklida, AQShda 'probation' va 'parole' tizimi doirasida mahkumlar jamiyat foydasiga ishlashga jalb qilinadi. Rossiyada esa axloq tuzatish ishlari "исправительные работы" nomi bilan yuritiladi va bu jazo turi yengil jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Bu tizimlar orasida mehnatga jalb etish, jamiyatdan ajratmaslik, nazorat organlari orqali ijtimoiy moslashtirish. kabi umumiy jihatlari mavjud.

Axloq tuzatish ishlari jazosining ijrosini samarali tashkil etish mahkumlarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirishning muhim bosqichidir. Bu jarayonda probatsiya xizmatining o'zni beqiyos bo'lib, nazorat va monitoring, huquqiy va psixologik yordam kabi vositalar bilan jinoyatchilikni kamaytirish yo'lida xizmat qiladi. Shu boisdan ushbu tizimni takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish va xalqaro tajribalarni amaliyotga tadbiq etish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2023.
3. "Probatsiya to'g'risida" Qonun, 2023-yil 5-dekabr.
4. <https://lex.uz/ru/docs/3323415>
5. Raimova D. "Axloq tuzatish ishlari jazosining ahamiyati va uni ijro etishda probatsiya xizmatining roli". – Toshkent Davlat yuridik universiteti, magistrlik dissertatsiyasi, 2022.
6. Zaytsev A. "Исправительные работы как вид уголовного наказания". – М., 2021.
7. Ruziyev I. Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida axloq tuzatish ishlari jazosining tartibga solinishi // Общество и инновации. 2021-Т.2.-№ 3/5
8. Azizov Z. Probatsiya xizmati faoliyatida xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti // Huquq va burch. – 2022. – №6. – B. 31–34.
9. Xojimatov T. Jazo turlari va ularni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi // Jamiyat va boshqaruv. – 2023. – №3. – B. 45–50.